



## YOZUVNING KELIB CHIQISH TARIXI

---

*Kozokova Ch.A.*

*Samarqand davlat chet tillari institute o'qituvchisi*

*Salayeva M.S*

*Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yozuv va uning tarixi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Yozuvning har xil turlari va kelib chiqish bosqichlari chuqur o'rganiladi. Yozuvning hayotimizdagi ahamiyati, hamda uning turlari haqida misollar ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** yozuv, mixxat yozuvi, belgi, shakl, xitoy mifologiyasi, yozuv rivojlangan hududlar, takoz shakli, "oracle" suyak yozuvi, transkripsiya, papirus qog'ozi.

Yozuv hayotimizning bir bo'lagidir. Shu sababli ham yozuv qadimiy tarixga egadir. Ma'lumki, insoniyat dahosi erishgan eng buyuk va muhim yutuqlardan biri yozuvning kashf etilishi hisoblanadi. Qadimda insonlar bir-biri bilan imo-ishoralar yoki maxsus belgilar orqali gaplashishgan. Bilamizki, o'qish va yozish hozirgi kunda keng rivojlangan. Lekin yozuvning paydo bo'lishi tilning paydo bo'lishichalik uzoq o'tmishga ega emas. Ma'lumotlarga ko'ra, yozuv tildan ancha keyin paydo bo'lgan ya'ni tovush tili taxminan 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan bo'lsa, yozuvning vujudga kelganiga 4-5 ming yillar bo'lgan. Og'zaki nutqning zamon va makon nuqtayi nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib keldi.

Yozuv sababli insoniyat olami uchun keng imkoniyatlar ochildi. Uni taraqqiyot asoschisi desak adashmaymiz. Negaki, hozirgi kunda, aynan yozuv orqali ajdodlarimizning yaratgan, barpo etgan meroslari bilan tanishmiz. Agarda yozuv bo'lmaganda edi, ushbu meroslar biz uchun shunchaki, misli ochilmagan jumboq bo'lib qolgan bo'lardi. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba-bilimlarni saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi ham bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so'z san'ati durdonalari kabi qimmatli axborotlarning barcha-barchasi o'tmish madaniyatimiz, tariximiz haqidagi bugungi tasavvurlarimizning mavjudligi, tirikligi faqat yozuv tufaylidir. Shuningdek, yozuv bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Olimlar ham yozuvning paydo



bo'lishi va ahamiyati to'g'risida har xil fikrlarni bayon etishgan. Keling, yozuvning tarixiga ham nazar tashlasak.

Qadimgi sivilizatsiyalar yozuvning kelib chiqishini Xudolarga bog'lashgan. Qadimgi misrliklar uchun ularning Xudosi Tot yozuvning, ba'zi bir hikoyalarda esa nutqning yaratuvchisi ekanligini aytishgan. Qadimgi shumerlar va ossuriyaliklar ham qadimgi mayyalar singari yozuvning ma'lum Xudolardan kelib chiqqan deb hisoblashgan. Xitoy mifologiyasida yozuvning yaratilishi qadimgi donishmandga tegishli bo'lib, Xudolar bilan muloqot qilish uchun ishlatilgan. Shubhasiz, yozuvni hatto qadimiy tarixga ega xalqlar ham yuksak qadrlagan.

Ibtidoyi odamlar 25000 yoki undan ko'proq yil oldin g'or devorlariga rasm chizishni boshladilar, ammo ularning guruhlari dehqon jamoalariga birlashmaguncha yozuv tizimlari rivojlanmadi. Olimlarning ta'kidlashicha, yozuv tizimlari dunyoning kamida uchta joyida: Mesopotamiya, Xitoy va Mesoamerikada mustaqil ravishda rivojlangan. Ma'lum bo'lgan eng uzoq o'tmishga ega yozuv tizimi Mesopotamiyada qadimgi surneriyaliklar orasida miloddan avvalgi 300-yillarda yuzaga kelgan. Qishloq xo'jaligi jamiyatlarining paydo bo'lishi bilan birga mulkchilikning rivojlanishi va uning hisobini yuritish zaruriyati paydo bo'ldi. Ilk dehqonchilik jamiyatlarida mulk asosan yer, chorva kabi chorva mollari va dondan iborat edi. Dastlab, bu mulklarni sanash uchun turli shakllarni bosish tizimini ishlab chiqarishgan. Takoz shakllaridan foydalangan holda bunday yozish tizimini mixxat yozuvi deb nomlashgan. Keyinchalik, u boshqa madaniyatlar tomonidan qabul qilindi va yangi yozuv tizimlari uchun asos bo'ldi. Ob'ektlarni tasvirlashga tizimda paydo bo'lgan mixxat yozuvi oxir-oqibat til tovushlarini ifodalash uchun belgilar ishlatadigan tizimlarga aylandi.

Xitoy yozuvining eng qadimgi shakli miloddan avvalgi 1500 yilga to'g'ri keladi. U "oracle" suyak yozuvi deb ataladi. Chunki u kelajakni bashorat qilishi uchun ishlatiladigan ya'ni foydalanadigan hayvonlarning suyaklari va qobiqlariga o'yilib ishlangan. Keyinchalik, bronza vazalarida xitoy yozuvi paydo bo'ldi va undan keyin hukumat ishlarini yozib olish uchun ishlatiladigan tizimga aylandi. Xitoy yozuv tizimi ham yapon va koreys yozuv tizimlari uchun asl asos bo'lgan.

Mesoamerikada, Meksika va Markaziy Amerikaning ba'zi qismlarini o'z ichiga olgan mintaqada, qadimgi mayyalar ma'bad devorlari va boshqa diniy tuzilmalarga yozgan yozuvlari bilan mashhur. Biroq, olimlarning fikricha, dunyoning o'sha qismida yozuv boshlangan bo'lishi mumkin. Mayya sivilizatsiyasi paydo bo'lishidan oldin Zapotek madaniyati markazlashtirilgan. Oaxakada shtatida (Meksika) allaqachon milodiy 400- asr yoki undan oldinroq yozuv ishlatilgan.



Olmer madaniyati bundan avvalroq yozuv tizimini ishlab chiqqan bo'lishi mumkin degan nazariyalar ham bor. Oxirgi kashfiyotlar shuni ko'rsatadiki, mayyalar taxminan 2300 yil oldin yozishni boshlashganligi haqidagi qarashlar mavjud. Ular o'z hukmdorlarining ishlari haqidagi ma'lumotlarni hamda ularning taqvimini va astronomiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni yozib olish uchun so'z va bo'g'inlarni ifodalovchi belgilar tizimidan foydalanganlar. Ularning yozuv tizimi 1500-yillarda Ispaniya istilosi davrigacha saqlanib qolgan.

Qadimda faqat biror bir mansab egalari, masalan, olimlar, ruhoniylar yoki davlat amaldorlari yozuvdan foydalanganlar. Bugungi kunda dunyoning katta yoshli aholisining to'rtidan 3 qismi o'qish va yozishni biladi va savodxonlik zamonaviy dunyoda ishlash uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikma hisoblanadi. Qo'shimcha qilib aytadigan bo'lsam, o'tgan davrlarda ba'zi bir qabilalar, jamoalar maxsus belgilar, rasmlar va sonlar yordamida kommunikatsiya o'rnatishgan. Xususan, B.Musayev va Z.Nazirovalarning maqolasida bunga bir qancha misollar keltirishgan. Misol qilib aytadigan bo'lsam, qadimgi arablar "yuz ming" sonini itbaliqning shakli orqali izohlashgan. Mening fikrimcha, ushbu "yuz ming" sonini ifodalaydigan belgini tushunish uchun insonlar bu turdagi belgilarni yaxshi bilishlari kerak bo'lgan. Chunki bunday belgilarning asl ma'nosini bilmagan odam uni noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Eng qadimgi davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan "eslatuvchi" belgilar izlanishlarning ilk ko'rinishlarining biri desak adashmaymiz. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig'anoqlardan foydalanilgan. Tayoqlar, daraxtlarga har xil iplar bog'lash, tugunlar tugib qo'yish kabi vositalar bilan ma'lum bir axborotlarni yodda saqlash yoki muayyan masofaga yuborish uchun gulxan, tutun, baraban ovozi kabilardan foydalanilgan. Yoki hali sivilizatsiyaga erishmagan xalqlarning nazarida yozuv gapira olish imkoniyatiga ega bo'lgan tirik mavjudot, u murakkab sirlarni ochib berishi, kelajakni oldindan aytib berishi mumkin sanalgan. Mashhur amerika grammatologi (yozuv tarixini o'rganuvchi olim) I.E.Gelb o'zining "Yozuvni o'rganish tajribasi (Grammatologiya asoslari)" nomli kitobidan yaxshi misollar keltirish mumkin. Rasm bilan yozuv o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud, avvalo, har ikkalasi ham ko'rish orqali idrok qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san'at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin.

Inson tobora takomillashib borgan sari, hayotiy ehtiyoj bora-bora yozuvni soddalashtirdi, tasvirlanayotgan predmet bilan yozuv o'rtasidagi o'xshashlik yo'qoldi, belgi so'zining simvoli bo'lib qoladi. Papirus qog'ozi hamda yozish uchun maxsus tayoqcha va bo'yoqning kashf etilishi yozuvni rivojlantirdi, uning



soddalashuviga imkon tug'dirdi. Keyinchalik alohida harflardan iborat yozuv paydo bo'ldi.

Transkripsiya ham maxsus yozuv turi hisoblanadi. Ushbu yozuvdan biz ko'proq so'zlarning talaffuzini yozishda foydalanamiz. Biz bilamizki, ingliz tilidagi so'zlar o'zbek tilidagi so'zlardan o'qilishi bilan farq qiladi. Ingliz tilidagi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish uchun ham transkripsiyadan foydalanamiz. Masalan ingliz tilidagi "lease" so'zining transkripsiyasi [lis] yoki "grease" so'zi [griz] bo'ladi. Bu bizga talaffuzimizni yaxshilashimizga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimdek, yozuvning hayotimizdagi roli beqiyosdir. Nutqimizda har bir yozuv o'ziga xos vazifa bajaradi. Yozuvning vujudga kelishi til bilan bevosita bog'liqdir. Aslini olganda ikkalasini ham bir-biridan ajratish mushkul. Yozuvdan to'g'ri va ravon foydalanish uchun undan habardor bo'lish ya'ni yaxshi bilimga ega bo'lish kifoya.

#### REFERENCES

1. Nargiza Erkaboyeva "Hozirgi o'zbek adabiy tili" ma'ruzalar to'plami.
2. Otabek Shukurov "Uchtasi birda".
3. Madrim Hamrayev "Ona tili" 2020.